

**O‘ZBEK OILALARIDA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVINI
TA’MINLASH JARAYONINING PEDAGOGIK MAZMUNI**

Burxanova Mavjuda Bekbutayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti “Psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

burxanovamavjuda@gmail.com

Abdullayeva Iroda Anvar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 21/3 –guruh talabasi

Annotasiya. Mazkur maqolada kasbiy ijtimoiylashuvning umumiy nazariy mazmuni borasida o‘z munosabatimizni belgilab oldik va o‘zbek oilalari yoshlarida ijtimoiy tarbiyalashni ta‘minlashning aynan pedagogik mazmunini aniq belgilab olishga hamda uning pedagogik tizimi, ya‘ni yaxlit pedagogik qurilishi qanday ekanligini ko‘rsatib berishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: oila, shaxs, tarbiya, ijtimoiylashuv, pedagogik jarayoni, kasb-hunar, kasbiy yo‘nalganli, ta‘lim-tarbiya.

Аннотация. В данной статье мы определили наше отношение к общетеоретическому содержанию профессиональной социализации и попытались четко определить педагогическое содержание социального воспитания молодежи узбекских семей и показать, что представляет собой ее педагогическая система, то есть ее целостная педагогическая конструкция.

Ключевые слова: семья, личность, воспитание, социализация, педагогический процесс, профессия, профессиональная направленность, образование.

Abstract. In this article, we have defined our attitude to the general theoretical content of professional socialization and tried to clearly define the pedagogical content of the social education of youth in Uzbek families and show what its pedagogical system is, that is, its integral pedagogical structure.

Key words: family, personality, upbringing, socialization, pedagogical process, profession, professional orientation, education.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategik rejalari, yangilanish va o‘zgarishlarning yangi bosqichida ko‘zlangan maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishda so‘zsiz, ajdodlarimiz merosida chuqur iz qoldirgan qadriyatlarimiz qatorida yoshlarga bo‘lgan ishonch va e‘tibor an‘analariga sodiq qolgan holda biz ham kelajak istiqbolimizni, Vatan ozodligi va obodligini dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan, bilimli, har tomonlama yetuk farzandlarimiz, barkamol avlod bilan bog‘lamoqdamiz.

Haqiqatan ham, agar bugungi kunda mamlakatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga, bunyodkorlik ishlariga, har bir yigit qiz, farzandlarimiz o‘zlarini shu yurtda erkin sezmog‘i, bilim olmog‘i, o‘z imkoniyatlari namoyon qila olmog‘i uchun yaratilgan shart sharoitlarga aql ko‘zi bilan nazar solar ekanmiz, shunchalik

ishonch e'tibor, g'amxo'rlik, mehnat va mashaqqat "Nima uchun va Kim uchun?" degan savolga oqilona javob topa olamiz.

2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonunida davlatimizning yoshlarga oid siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berildi. Qonunda ta'kidlab o'tilganidek, yoshlarimizning butun qobiliyati iqtidorli va tafakkur salohiyatini yuzaga chiqarish uchun barcha shart – sharoitlarni yaratish barobarida jamiyat hayotida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mamlakatimizda kechayotgan tub o'zgarishlarda ularning ishtiroki va mavqeini mustahkamlash muhim vazifadir [1].

Har bir farzand ertangi kunimizning davomchilari. Ularning kelajagi esa biz, kattalarga bog'liq. Shunday ekan, ularga Mustaqil O'zbekiston tanlagan eng to'g'ri va eng adolatli yo'ldan adashmaslikni qancha erta o'rgatsak, shuncha yaxshi natijaga erishamiz. Chunki, oilada shakllangan ma'naviy muhit avvalo o'spirin yoshning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'limki, oila - bu bolani shaxs sifatida ijtimoiylashuvishining muhim institutlaridan biri sifatida, birlamchi ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. Aynan oilada yoshlar ijtimoiylashuv munosabatlarning birinchi tajribasini oladi. Ma'lum bir vaqt davomida oila odatda bolada bunday tajribani olishning yagona maskani hisoblanadi. Oila, shaxsni ijtimoiylashuvining asosiy instituti sifatida tug'ilish paytidan boshlab shaxsga aylanishigacha hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvinin tarbiyalashning turlicha xususiyatlari, ya'ni, azaldan o'zbeklarning milliy qadriyatlari tizimida mavjud bo'lgan va ularga amal qilib kelingan [7]. Ammo, mazkur qadriyatlar aynan yoshlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash g'oyalari tarkibida emas, balki umumiy axloqiy-ma'naviy normalar sifatida tarbiya tizimiga joriy etilgan. Shu bois, yoshlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash masalasida, mazkur tarixiy hamda globalashuv sharoitida shakllanib borayotgan tizim bugungi davrning barcha talablariga to'la javob bera oladi deb bo'lmaydi.

Oila muhiti inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazish bilan bir qatorda, shu tarbiya vositasida uning vujudiga ruhiy, aqliy va ahloqiy kuch-qudrat rishtalarini ulaydi, milliy ruh va diniy e'tiqod tuyg'ularini shakllantiradi. Oilaviy tarbiyada milliy an'analar uyg'unligi yaqqol seziladi. Zotan, ularning har ikkalasida ezgulik va bag'rikenglik, totuvlik va hamkorlik, odamgarchilik, andisha va odob, xushmuomalalik, saxiylik va mehmondo'stlik, insof va diyonat, halollik va sabr-qanoat singari fazilatlar ustuvorlik qiladi.

Biror bir xalq yoki millat buyukligi, ma'naviyati yuksakligini belgilovchi omil bu uning insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasining yuksakligidir. Yoshlarimiz ongida yurt taqdiri va vatan ravnaqi uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, har birimiz shu yurtning egasi sifatida uning ozodligi va obodligi yo'lida hech bir ikkilanishsiz butun kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qila olmog'imiz fuqarolik vazifamiz, farzandlik burchimiz ekanligini ularning vujudiga olib kirmog'imiz yuksak ma'naviyat tarbiyasining mas'uliyatidir. Zero, Vatan

mehridan bahramand bo'lib, unga munosib javob berish, uni sajdagoh kabi muqaddas deb bilib, qadrlay olmoq haqiqatda ma'naviy yetuklik belgisidir.

Professor N.N.Azizxodjayevaning fikriga qo'shilgan holda, yoshlarning bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo'llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqchimiz:

a) barcha ta'lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo'llab-quvvatlash (yoshlarga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo'lish, ularni o'quv bilish jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o'zaro o'qitish muhitini yaratish, ta'limning faoliyatli mazmuni, o'rgatuvchi o'yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy «muvaffaqiyat zinapoyasi»da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual-shaxsiy qo'llab-quvvatlash (yoshlarning shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o'qishni takt bilan tashxislash; har bir talabaning rivojlanish jarayonini kuzatib borish; pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zaruratini yoshlarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash va b.)[2].

Mazkur yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak yosh mutaxassning kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo'naltirilganligini to'la qonli tarzda o'rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki, munosabat shaxsning mayllarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu asnda shaxsning kasbiy yo'nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

Shunday ekan, zamonaviy oilalarda yoshlarning ijtimoiy tarbiyalashni ta'minlashning pedagogik mazmuni borasida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishini aniqladik, ya'ni: ijtimoiylashuv jarayoni – kasb egallash va kasbiy yo'naltirish asosidagi barcha mavjud aqidalarni va zamonaviy qarashlarni anglash, ularni qabul qilish, ularga tayanib yashash, ularni o'z hayotida qayta shakllantirish va jonlantirib yashash jarayonlaridan iboratdir. Kasbiy ijtimoiylashuvda individ o'z kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini shaxsiy va umumjamiyat taraqqiyoti uchun real amaliyotga tatbiq etadi [5].

Chunki, bugungi davr yoshlarning ijtimoiy tarbiyalashni ta'minlashni stixiyali tarzda emas, balki maqsadli va dasturiy tarzda olib borishni taqozo etadi. Muhim bo'lgan masalalardan biri – o'zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash jarayonining pedagogik mazmuni nima ekanligini, mazkur pedagogik mazmun qanday kategoriya, jarayonlar va vazifalar ko'lami bilan belgilanishini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'RQ-406-son Qonuni //“Xalq so'zi” gazetasi 2016-yil 15-sentabrda 182 (6617)-soni.
2. Muxtarovna B. D. et al. OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 25-33.

3. Бегматова Д. М. КАСБИЙ ИЖТИМОЙЛАШУВДА ЗАМОНАВИЙ КАСБЛАР ТАҲЛИЛИ //Педагогика ва психологияда инновациялар. – 2020. – Т. 10. – №. 3.
4. Бегматова Д. М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 127-129.
5. Mukhtarovna B. D. Professional socialization of youth as a pedagogical problem //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1207-1212.
6. Muxtarovna B. D. et al. OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 25-33.
7. Bekbutaevna B. M. IMPROVEMENT OF INNOVATIVE MECHANISMS OF THE ORGANIZATION OF SOCIAL EDUCATION IN FAMILIES //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 7. – С. 36-39.
8. Bekbutaevna B. M. FAMILY EDUCATION OF A CHILD: THE PAST AND PRESENT. – 2021.
9. Burkhanova M. B. FAMILY RELATIONSHIPS AND WOMEN IN SOCIETY AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY:(BASED ON THE VIEWS OF ABDURAUUF FITRAT) //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – С. 352-354.
10. Бурханова М. Б. ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФ ФИТРАТА О СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ЖЕНЩИН //Мировая наука. – 2021. – №. 1. – С. 62-65.
11. Mamasakhatovna Y. S., Bekbutaevna B. M. Psychological fundamentals of child raising in the family. – 2021.
12. Тўрақулов Б. Н., Буханова М. Б. ЭМОЦИОНАЛ ИНТЕЛЛЕКТ ТУШУНЧАСИНИНГ ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ЎЗИГА ХОСЛИГИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 4. – С. 1006-1014.
13. Шодиев Р. Т., Кушакова Н. Философские концепции соотношения языка и мышления //ФИЛОСОФИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. – 2017. – С. 261-267.
14. Tohirovich S. R., Adirasulovich K. S. Explanation Of Lust And Patience In" Hikmats" Of Khoja Ahmed Yasawi //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 9. – С. 229-233.
15. Muhammadievich G. O. Methods Of Using National Ideas And Values In The Struggle Against Spiritual Threat In Society //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 2s. – С. 326-332.

16. Ғайбуллаев О. ЁШЛАРДА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ МОҲИАТИ //Научно-просветительский журнал " Наставник". – 2021. – №. 2.
17. Samadov A. R. Problems of Forming and Developing Person's Aesthetic Ideal //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 6. – С. 132-137.
18. Махмудова М. ИНСОННИНГ КЕЛАЖАГИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБ ТАНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 4.
19. Каршибаева У., Махмудова М. Катта умидлар ва шум бола асарларида макон ва инсон //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2019. – №. 4 (73). – С. 24-27.
20. Махмудова М. Воспитание общественной активности у младших школьников. – 1994.